




ISTE'MOL BOZORI

(2019 yil yanvar - dekabr*)

Chakana savdo aylanmasi joriy yilning yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 16.9 % ga oshdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi

2019 yil yanvar-dekabr



Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 13.6%ni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 86.4 % ni tashkil etdi.




JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Jami chakana tovar aylanmasi tarkibi

	2018 yil qiymati (mlrd.so'm)	Ulushi (%)	2019 yil qiymati (mlrd.so'm)	Ulushi (%)	O'sish sur'ati (%)
<i>Jami chakana tovar aylanmasi</i>	4425,2	100,0	5860,2	100,0	116,9
<i>Yirik korxonalar</i>	433,4	9,8	797,5	13,6	162,5
<i>Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik</i>	3991,8	90,2	5062,6	86,4	112,0

**Chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlarining oylar kesimida dinamikasi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda)**






JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2019 yil yanvar - dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)

(ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda)



Viloyatning barcha hududlarida chakana savdo aylanmasi hajmida o'tgan yilga nisbatan sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi.


Qayd etish joizki, Jizzax shahri (1619,0 mlrd. so'm), Sharof Rashidov (928,9 mlrd. so'm), Zomin (854,2 mlrd. so'm) va Baxmal (674,6 mlrd. so'm) tumanlari viloyat chakana savdo aylanmasi o'sishiga katta hissa qo'shgan hududlar hisoblanadi.



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



**2019 yil yanvar - dekabr oylarida ovqatlanish tashkilotlarini
qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasining o'sish
sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)**




Viloyatning barcha hududlarida chakana savdo aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari kuzatildi.

Xususan, nisbatan yuqoriroq o'sish sur'atlari Sharof Rashidov (36,6 %), Baxmal (35,9 %), Forish (10,5 %), Paxtakor (7,1%) tumanlari va Jizzax shahrida (20,0 %) kuzatildi.

O'sish suratlari nisbatan yuqori bo'lgan hududlar Zafarobod (5,2 %), Arnasoy (5,2 %), Mirzacho'l (5,1 %) tumanlari hisoblanadi.




Hududlarning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, % da



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Jizzax shahri (27,6 %) hamda Sharof Rashidov (15,9 %), Zomin (14,6 %), Baxmal (11,5 %) va G'allaorol (7,1 %) tumanlari o'z ko'rsatkichlari bilan chakana savdo hajmi o'sishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi.



Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi (ming so'mda)




Umumiy ovqatlanish korxonalarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,5 % ga oshib, 4286,2 ming so'mni tashkil etdi. (2018 yil yanvar-dekabr oylarida 3305,6 ming so'mni tashkil qilgan edi.) O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatgichlari Jizzax shahri (9219,9 ming so'm), Zomin (5299,0 ming so'm) Sharof Rashidov (4292,3 ming so'm) va Baxmal tumanlarida (4386,2 ming so'm) kuzatildi.



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Umumiy ovqatlanish korxonalarining tovar aylanmasi (mln. so'm)



Umumiy ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi joriy yilning yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 14,0 % ga oshdi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi umumiy hajmida eng yuqori ko'rsatkichlar qayd etgan hududlar Jizzax shahri (49245,2 mln so'm) hamda Forish (20624,2 mln so'm) va Sharof Rashidov (16364,8 mln so'm) tumanlari hisoblanadi.



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



**Umumi ovqatlanish korxonalari tovar aylanmasining o'tgan yilga
nisbatan o'sish sur'ati, % da**



Hududlar bo'yicha tahlil qilinganida, umumi ovqatlanish korxonalari tovar aylanmasi o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati Forish (2,1 marta) tumanida kuzatildi. Shuningdek, Mirzacho'l (5,2 %), Paxtakor (5,2 %) va Zomin (5,0 %) tumanlarida sezilarli o'sish sur'atlari erishilgan.


Yangiobod tumanida o'tgan yilning mos davriga nisbatan 96,7 %ni tashkil etgan.



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Jami chakana savdo aylanmasida kichik tadbirkorlikning ulushi



Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 12,0 % ga oshdi va jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmining 86,4 % ini tashkil qildi.

Viloyatdagi kichik tadbirkorlik sub'ektlari umumiyl tovar aylanmasi hajmining 3284,8 mlrd so'mini norasmiy sektor, 328,5 mlrd. so'mini uyushmagan savdo tashkil qildi.

Jami norasmiy sektorning chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 56,1 % ni tashkil etdi.



ULGURJI TOVAR AYLANMASI

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida ulgurji tovar aylanmasi hajmi 2000,2 mlrd. so'mni yoki 2018 yilning shu davriga nisbatan 3,7 % ga oshdi.


2019 yil yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi

	Ulgurji savdo tovar aylanmasi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, %da
<i>Jizzax viloyati</i>	2000,2	103,7
<i>shahar:</i>		
<i>Jizzax sh.</i>	838,6	103,9
<i>tumanlar:</i>		
<i>Arnasoy</i>	43,2	121,2
<i>Baxmal</i>	104,9	88,1
<i>G'allaorol</i>	47,1	85,8
<i>Sharof Rashidov</i>	295,8	104,4
<i>Do'stlik</i>	107,1	101,1
<i>Zomin</i>	185,5	100,9
<i>Zarbdor</i>	101,6	109,9
<i>Zafarobod</i>	50,5	134,6
<i>Mirzacho'l</i>	56,3	124,3
<i>Paxtakor</i>	58,9	107,7
<i>Forish</i>	51,1	100,6
<i>Yangiobod</i>	59,6	100,4

Hududlar miqyosida olib qaralganda, ulgurji tovar aylanmasida Zafarobod (134,6 %), Mirzacho'l (124,3 %), Arnasoy (121,2 %) tumanlarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.



Kichik korxona va mikrofirmalarning ulgurji savdodagi ulushi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100 % ni tashkil etib, 1125,4 mlrd. so'mga yetdi va umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 56,3 % ni tashkil qildi.

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi boshlig'i*

*Murodulla Ibragimov
tel: (0371) 230-83-45*